MILLIY IQTISODIYOT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA O‘ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Mannopova Muazzamxon Sultonbekovna
I.f.f.d., dotsent, Farg`ona davlat universiteti
e-mail: muazzam.mannopova@gmail.com

Annotatsiya*. Mazkur maqolada milliy iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanish tendensiyalari, institutsional islohotlarning tashqi savdo munosabatlariga ta’siri, eksport-import operatsiyalarining dinamikasi hamda xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari kompleks iqtisodiy-statistik tahlil asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatida yuz berayotgan miqdoriy va tarkibiy o‘zgarishlarni aniqlash, tashqi savdo samaradorligiga ta’sir etuvchi iqtisodiy va institutsional omillarni baholash hamda milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar, tarkibiy tahlil, iqtisodiy-statistik guruhlash va institutsional-komparativ tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotda tashqi savdo hamkorlari tarkibida ayrim yirik mamlakatlarning ustunligi, oltin eksporti bilan bog‘liq tebranishlar, transport-logistika cheklovlari va eksport tarkibini diversifikatsiya qilish zarurati asosiy tarkibiy muammolar sifatida ajratib ko‘rsatilgan. Olingan natijalar tashqi savdo hajmining o‘sishi iqtisodiy samaradorlikning yagona mezoni emasligini, balki yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini kengaytirish, import qilinayotgan texnologiyalardan samarali foydalanish, xizmatlar eksportini rivojlantirish va milliy ishlab chiqaruvchilarning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvini kuchaytirish muhimligini asoslaydi. Maqolada tashqi iqtisodiy faoliyatni institutsional takomillashtirish, eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish va milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *tashqi iqtisodiy faoliyat, milliy iqtisodiyot transformatsiyasi, tashqi savdo, eksport, import, savdo balansi, iqtisodiy integratsiya, eksport diversifikatsiyasi, institutsional islohotlar, transport-logistika infratuzilmasi, global qiymat zanjirlari, raqobatbardoshlik, yuqori qo‘shilgan qiymat, iqtisodiy samaradorlik.*

KIRISH

Globallashuv va xalqaro ishlab chiqarish zanjirlarining qayta tashkil etilishi sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyat milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish, bandlik, texnologik yangilanish va valyuta tushumlari bilan bog‘liq strategik yo‘nalishiga aylandi. O‘zbekiston uchun ushbu masala ayniqsa dolzarb: mamlakat ikki karra dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan geografik makonda joylashgan, shu bilan birga Markaziy Osiyodagi barcha qo‘shni davlatlar bilan chegaradosh bo‘lgani sababli tranzit va mintaqaviy savdo aloqalarini rivojlantirish salohiyatiga ega [4].

2017-yildan keyingi iqtisodiy islohotlar valyuta operatsiyalarini erkinlashtirish,

tashqi savdo tartib-taomillarini takomillashtirish, xususiy tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratildi. Natijada tashqi savdo oqimlarining nominal qiymati sezilarli oshdi. Biroq aylanmaning o‘sishi o‘z-o‘zidan iqtisodiyotning eksportga ixtisoslashgan, yuqori texnologiyali modelga o‘tganini anglatmaydi: savdo tarkibi va uning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri alohida baholanishi lozim[2, 3].

Maqolada O`zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida mavjud o`rganilgan muammolar sifatida ya`ni tashqi savdo hajmi kengaygan bir paytda eksport-import tafovuti va tashqi bozorlar bilan bog‘liq xatarlar saqlanmoqda. Masalan, 2025-yil yakunida eksport 33,8 mlrd, import 47,4 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan[1]. 2026-yil yanvar–sentabrda esa eksportning umumiy hajmi qisqargan, oltindan tashqari tovarlar eksporti o‘sgan[1]. Bu holat agregat ko‘rsatkichlarni tarkibiy indikatorlardan ajratib talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Maqolaning tahlil maqsadi - O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyati rivojlanishining o‘ziga xos iqtisodiy va institutsional xususiyatlarini aniqlash, savdo dinamikasini statistik asosda baholash va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarni asoslash. Tadqiqot obyekti mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari; predmeti esa eksport-import oqimlari, tarkibiy o‘zgarishlar va ularni belgilovchi omillardir.

Milliy iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish zamonaviy iqtisodiyot fanining dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala iqtisodiy nazariyada xalqaro mehnat taqsimoti, tashqi savdo munosabatlari, iqtisodiy integratsiya, eksport salohiyatini oshirish, investitsion faollik va milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlash kabi yo‘nalishlar doirasida o‘rganilgan. Xususan, tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish, eksport-import operatsiyalarining tarkibiy o‘zgarishlari, xalqaro savdo oqimlarining dinamikasi hamda institutsional islohotlarning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida muhim o‘rin egallaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tashqi iqtisodiy faoliyatning nazariy-metodologik asoslari dastlab klassik iqtisodiy maktab vakillari A. Smit va D. Rikardo tomonidan ishlab chiqilgan. A. Smitning mutlaq ustunlik nazariyasi hamda D. Rikardoning qiyosiy ustunlik nazariyasi mamlakatlar o‘rtasidagi savdo munosabatlarining iqtisodiy mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan[7;5]. Keyinchalik E. Xeksher va B. Olin tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi xalqaro savdoning tarkibiy shakllanishini resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi orqali izohlab bergan. Ushbu nazariy yondashuvlar mamlakatlarning tashqi savdo ixtisoslashuvi, eksport tarkibi va xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi o‘rnini tadqiq etishda fundamental ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi [8;9].

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasida P. Krugman, M. Porter, D. Rodrik va R. Baldwin kabi iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. [10;11]. Jumladan, P. Krugman xalqaro savdoda miqyos samarasi va

nomukammal raqobatning rolini asoslab bergan bo‘lsa, M. Porter milliy raqobat ustunliklarini shakllantirishda ishlab chiqarish omillari, korxonalar strategiyasi va institutsional muhitning ahamiyatini yoritgan. D. Rodrik iqtisodiy transformatsiya va sanoat siyosatining tarkibiy o‘zgarishlarga ta’sirini tadqiq etgan. R. Baldwin esa global qiymat zanjirlari, ishlab chiqarish jarayonlarining xalqaro taqsimlanishi va texnologik rivojlanishning xalqaro savdoga ta’sirini ilmiy jihatdan izohlagan[6;12].

Maqolada tashqi savdoni erkinlashtirish va global qiymat zanjirlariga qo‘shilish iqtisodiy o‘sishning muhim omillari sifatida baholangan. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, xalqaro savdo munosabatlarini takomillashtirish, eksport salohiyatini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiyalashuvi masalalari muhim o‘rin egallaydi. Jumladan, A.V. Vahobov, Sh.X. Xajibakiyev va Sh.I. Raxmanovning “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar” nomli o‘quv qo‘llanmasida xalqaro mehnat taqsimoti, jahon xo‘jaligining shakllanishi, xalqaro savdo munosabatlari va iqtisodiy integratsiya jarayonlarining nazariy asoslari yoritilgan. Mazkur yondashuvlar O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish, xalqaro bozorlardagi ishtirokini kengaytirish va tashqi savdo faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

N.H. Haydarovning iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirish va iqtisodiy islohotlarning institutsional mexanizmlari o‘rganilgan. Ushbu ilmiy yondashuvlar tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining investitsion imkoniyatlarini kengaytirish, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni moliyalashtirish hamda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay iqtisodiy sharoitlarni shakllantirish masalalarini tadqiq etishda ahamiyatlidir.

Shuningdek, O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan xalqaro iqtisodiy integratsiya, tashqi savdoni erkinlashtirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga oid olib borilgan tadqiqotlarda eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda tashqi savdo infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur ilmiy qarashlarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, milliy iqtisodiyotning xalqaro bozorlardagi mavqeyini mustahkamlash uchun tashqi savdo hajmining o‘sishi bilan bir qatorda eksport mahsulotlarining texnologik murakkabligi, ishlab chiqarish samaradorligi va tashqi iqtisodiy aloqalarning geografik diversifikatsiyasini ta’minlash zarur.

Xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy yondashuvlarini qiyosiy o‘rganish asosida ta’kidlash mumkinki, tashqi iqtisodiy faoliyatning barqaror rivojlanishi iqtisodiy erkinlashtirish, institutsional islohotlar, ishlab chiqarish salohiyatini modernizatsiya qilish va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotda O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining 2020–2026-yillardagi rivojlanish tendensiyalari, eksport-import tarkibidagi o‘zgarishlar, savdo hamkorlarining geografik taqsimoti hamda iqtisodiy transformatsiya jarayonlarining tashqi savdo samaradorligiga ta’siri kompleks tahlil qilinadi.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolaningning metodologik asosini xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasi, tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish konsepsiyalari, iqtisodiy integratsiya va milliy iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasiga oid ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, eksport-import operatsiyalarining dinamikasini baholash hamda tashqi savdo samaradorligiga ta’sir etuvchi iqtisodiy va institutsional omillarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati va xalqaro savdo munosabatlari tanlangan. Tadqiqot predmetini esa tashqi savdo aylanmasi, eksport va import oqimlarining tarkibiy o‘zgarishlari, tashqi savdo balansining shakllanish qonuniyatlari, savdo hamkorlarining geografik taqsimoti hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga ta’sir etuvchi iqtisodiy-institutsional munosabatlar tashkil etadi. Tadqiqotning empirik bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2020–2025-yillardagi tashqi savdo ko‘rsatkichlari, 2026-yil yanvar–sentabr oylariga oid statistik ma’lumotlar, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasining O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha tahliliy sharhlari tashkil etadi. Statistik ma’lumotlarni tahlil qilishda tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmi, savdo balansi, eksportning importni qoplash darajasi, asosiy savdo hamkorlarining ulushi hamda tovar va xizmatlar eksportining tarkibiy ko‘rsatkichlaridan foydalanilgan.

Maqolaning tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili, tarkibiy tahlil, iqtisodiy guruhlash va institutsional-komparativ tahlil usullari qo‘llanilgan. Tizimli yondashuv orqali tashqi iqtisodiy faoliyat milliy iqtisodiyotning tarkibiy rivojlanishi, ishlab chiqarish salohiyati, investitsion faollik va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liq tizim sifatida o‘rganilgan.

Dinamik qatorlar tahlili yordamida 2020–2025-yillarda O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining o‘zgarishi, yillik o‘sish sur’atlari va rivojlanish tendensiyalari aniqlangan. Bunda tashqi savdo aylanmasining nominal o‘sish sur’ati joriy davr ko‘rsatkichining bazis yoki oldingi davr ko‘rsatkichiga nisbati orqali baholangan. Qiyosiy tahlil usuli asosida eksport va import hajmlari, ularning o‘zgarish sur’atlari hamda tashqi savdo balansidagi tafovutlar solishtirilgan.

Tarkibiy tahlil usuli orqali tashqi savdo aylanmasida eksport va importning ulushi, asosiy savdo hamkorlarining geografik tarkibi, tovarlar va xizmatlar eksportining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Ushbu usul tashqi iqtisodiy faoliyatda ayrim mamlakatlar va mahsulot guruhlarining ustunlik darajasini aniqlash hamda eksport diversifikatsiyasining muhim yo‘nalishlarini belgilash imkonini bergan.

Tashqi savdo samaradorligini baholashda savdo balansi va eksportning importni qoplash koeffitsiyentidan foydalanilgan. Savdo balansi eksport va import hajmlari o‘rtasidagi farq sifatida aniqlangan. Eksportning importni qoplash koeffitsiyenti esa eksport hajmining import hajmiga nisbati orqali hisoblanib, foizlarda ifodalangan. Mazkur ko‘rsatkichlar tashqi savdo oqimlarining o‘zaro mutanosibligini baholash hamda tashqi savdo defitsitining shakllanish xususiyatlarini aniqlashga xizmat qilgan.

Institutsional-komparativ tahlil usuli yordamida tashqi iqtisodiy faoliyatni

liberallashtirish, valyuta munosabatlarini erkinlashtirish, bojxona tartib-taomillarini takomillashtirish va xalqaro savdo integratsiyasini rivojlantirish bilan bog‘liq iqtisodiy o‘zgarishlar o‘rganilgan. Shuningdek, transport-logistika infratuzilmasi, geografik joylashuv va xalqaro tranzit imkoniyatlarining tashqi savdo raqobatbardoshligiga ta’siri nazariy va amaliy jihatdan baholangan.

Maqolada tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanish xususiyatlari, eksport-import tarkibidagi nomutanosibliklar, tashqi savdo hamkorlari konsentratsiyasi va eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan talqin qilingan. Olingan natijalar tashqi savdo siyosatini takomillashtirish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan takliflarni shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar, tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish, xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish hamda milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga integratsiyalashuvini jadallashtirish jarayonlari mamlakat tashqi savdo ko‘rsatkichlarining izchil o‘sishiga muhim zamin yaratdi. Xususan, eksport-import operatsiyalarini tartibga solish mexanizmlarining takomillashtirilishi, savdo hamkorlari geografiyasining kengayishi va tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari ortishi tashqi iqtisodiy faoliyat rivojlanishining muhim omillariga aylandi.

O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi 2017-yildan keyin sezilarli kengaydi. 2020-yildagi pandemiya sharoitidan keyin o‘sish tiklandi va 2025-yilda yuqori darajaga chiqdi[1, 4].

1-jadval

O`zbekistonning tashqi savdo aylanmasi

Yil	Tashqi savdo aylanmasi, mlrd.dollar
2020	36,3
2021	42,2
2022	50,5
2023	63,5
2024	67,2
2025	81,2

Yuqoridagi 1-jadval ma`lumotlarida 2020–2024-yillarda aylanma 36,26 mlrd dollardan 67,24 mlrd dollarga yetganligi va ushbu yillar orasidagi natijalar 85,5 foizga ortganligini ko`rsatadi. 2025-yilning dastlabki ma`lumotlariga ko`ra esa, 81,2 mlrd dollarni tashkil qilib, ushbu ko`rsatkich 2024-yilga nisbatan taxminan 20,7 foiz o‘sganligini bildiradi. Ushbu natija tashqi savdo aloqalari faollashganidan dalolat bersa-da, savdo sifatini baholash uchun mahsulotlar, xizmatlar va geografik tarkibni tekshirish muhimligini bildirmoqda.

Shu bilan birga tashqi savdo aylanmasi aylanma nominal qiymatda o‘lchanishi sababli uning o‘sishi fizik hajm, narx, tarkib va hisob metodologiyasi ta’sirlarining yig‘indi natijasidir. Shu bois faqat aylanma ko‘rsatkichiga tayanib eksportning

texnologik murakkabligi yoki mahalliy qo‘shilgan qiymatning oshgani haqida qat’iy xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

2-jadval

O`zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyat ko`rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2025-yil, mlrd. dollar	2026-yil yanvar–sentabr, mlrd. dollar
Eksport	33,8	25,8
Import	47,4	39,6
Tashqi savdo aylanmasi	81,2	65,4
Saldo	−13,6	−13,8
Eksport/import qoplash darajasi	71,3%	65,2%

2-jadvalda 2025-yilda eksport 24,0 foiz, import esa 18,5 foiz o‘sgan [1]. Shunga qaramay, importning mutlaq qiymati yuqori bo‘lgani sababli savdo balansi manfiyligicha qolgan. 2026-yil yanvar–sentabrda eksport o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 foiz kamaygan, import esa 15,7 foiz oshgan [1]. Bu holat qisqa muddatda tashqi savdo nomutanosibligi kuchayganini ko‘rsatadi. Eksportning importni qoplash koeffitsiyenti 2025-yilda taxminan 71,3 foizni, 2026-yil to‘qqiz oyida esa 65,2 foizni tashkil etadi. Biroq bu koeffitsiyentlarning biri to‘liq yil, ikkinchisi to‘qqiz oyga tegishli ekanligi sababli ular asosida mavsumiylikdan xoli qat’iy trend xulosasi chiqarib bo‘lmaydi. Savdo defitsiti o‘z-o‘zidan faqat salbiy hodisa emas: investitsiya uskunalari, texnologiya va oraliq mahsulotlar importi kelajakdagi ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishi mumkin. Import hisobidan shakllangan quvvatlar eksport tushumi yoki import o‘rnini bosuvchi samarali mahsulotlar ishlab chiqarmasa, tashqi moliyalashtirishga ehtiyoj yuqori bo‘lib qoladi.

2025-yilda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasida Xitoy ulushi 21,2 foiz, Rossiya 16,0 foiz, Qozog‘iston 6,1 foiz, Turkiya 3,7 foiz va Koreya Respublikasi 2,1 foiz bo‘lgan [1]. Eng yirik ikki hamkorning jami ulushi 37,2 foizga teng. Bu holat mintaqaviy yaqinlik, tarixiy kooperatsiya va yetkazib berish zanjirlarining iqtisodiy ahamiyatini, ayni vaqtda bozorlar konsentratsiyasi xatarini ko‘rsatadi.

2026-yil yanvar–sentabrda Xitoy ulushi 23,2 foizga, Rossiya ulushi 16,0 foizga, Qozog‘iston 6,5 foizga, Turkiya 3,4 foizga va Afg‘oniston 2,4 foizga teng bo‘lgan [1]. Mazkur ma’lumotlar tashqi savdoda Osiyo va qo‘shni davlatlarning yuqori o‘rnini tasdiqlaydi. Eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish bilan birga mavjud hamkorlarda mahsulot nomenklaturasini kengaytirish ham zarur.

2025-yil davomida xizmatlar eksporti 9,76 mlrd dollarni tashkil etib, jami eksportning 28,9 foiziga teng bo‘lgan. Xizmatlar eksportida sayohat (turizm) xizmatlari 50,0 foiz, transport 33,0 foiz, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari 9,4 foiz ulushni egallagan [3]. Xizmatlar sektorining kengayishi geografik cheklovlarni qisman yumshatish va yuqori malakali bandlikni oshirish imkonini beradi.

Tovarlar eksportida qayta ishlangan mahsulotlar salmog‘ini oshirish alohida vazifadir. 2025-yilda to‘qimachilik mahsulotlari eksporti 2,63 mlrd dollarni tashkil etgan; meva-sabzavot eksporti qiymati esa 2,12 mlrd dollarga yetgan [4]. Bu tarmoqlarda sifat sertifikatsiyasi, sovuq zanjir, dizayn, brending va tayyor mahsulot ishlab chiqarish eksport birligidan olinadigan daromadni ko‘paytirishi mumkin.

2025-yil import tarkibida mashina va transport uskunalari 33,8 foiz, sanoat tovarlari 15,3 foiz, kimyo mahsulotlari 11,8 foiz ulushga ega bo‘lgan [4]. Demak, importning muhim qismi ishlab chiqarish va modernizatsiya bilan bog‘liq. Bunday importning iqtisodiy samarasi investitsiyalarning unumdorligi, mahalliylashtirish sifati va keyingi eksport imkoniyatlariga bog‘liq.

MUHOKAMA

O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanish jarayonlarini kompleks baholashda geografik joylashuv, transport-logistika infratuzilmasi, institutsional islohotlar hamda xalqaro iqtisodiy integratsiya omillarining o‘zaro ta’sirini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillar mamlakatning tashqi savdo salohiyati, eksport tarkibining diversifikatsiyalashuv darajasi va milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, tashqi iqtisodiy faoliyatning tarkibiy xususiyatlarini aniqlash, mavjud cheklovlarni baholash hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini asoslash maqsadida quyidagi ustuvor omillar ilmiy-tahliliy jihatdan ko‘rib chiqiladi.

1. Geografik va transport-logistika omili. O‘zbekistonning ikki karra dengizga chiqish imkoniyati yo‘qligi tashqi savdo xarajatlari va yetkazib berish muddatlariga ta’sir qiladi. Bu holatda temir yo‘l, avtomobil yo‘llari, multimodal terminallar, chegaradagi o‘tkazish tezligi va tranzit kelishuvlari raqobatbardoshlikning tarkibiy qismidir. Logistika xarajatlarining pasayishi ayniqsa tez buziladigan oziq-ovqat, tekstil va vaqtga sezgir sanoat mahsulotlari eksporti uchun muhim [15].

2. Institutsional islohotlar va bozor mehanizmlari. Valyuta bozorini erkinlashtirish, bojxona ma’murchiligini raqamlashtirish va tadbirkorlar uchun tashqi savdo tartiblarini soddalashtirish savdo faolligini oshiruvchi institutsional sharoitlarni yaratdi. Biroq natija faqat hujjatlar sonini qisqartirish bilan emas, balki chegaradan o‘tishning amaldagi vaqti, xarajatlari, tartiblarning oldindan bashorat qilinishi hamda korrupsion xavflarning kamayishi bilan o‘lchanishi kerak [2,3].

3. Oltin omili va agregat ko`rsatkichlar. 2026-yil yanvar–sentabrda umumiy eksport 5,5 foizga qisqargan bo‘lsa-da, oltindan tashqari tovarlar eksporti 13,3 mlrd dollarga yetib, 31,6 foiz o‘sgan [1]. Ushbu tafovut jami eksportdagi o‘zgarishlar ayrim yirik tovar guruhlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Demak, eksport siyosatini baholashda umumiy eksport bilan bir qatorda oltindan tashqari eksport, qayta ishlangan mahsulotlar va xizmatlar eksportini alohida kuzatish maqsadga muvofiq.

4. Jahon savdo tashkilotiga integratsiyalashuv. Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilish jarayoni tariflar, texnik tartibga solish, sanitariya-fitosanitariya talablari, xizmatlar bozori va savdo institutlarini xalqaro qoidalarga uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Kutilayotgan foyda faqat bozorga kirish imkoniyatlarida emas, balki tartiblarning barqarorligi va investitsiya ishonchining oshishida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, ayrim tarmoqlarda raqobat kuchayishi uchun moslashuv dasturlari zarur [13].

O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining barqaror rivojlanishini ta’minlashda mavjud iqtisodiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, tashqi va ichki omillar ta’sirida yuzaga keladigan xatarlarni aniqlash hamda ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish muhim

ahamiyat kasb etadi. Xususan, jahon bozorlaridagi beqarorlik, eksport-import tarkibidagi nomutanosibliklar, xalqaro raqobatning kuchayishi va hududlar iqtisodiy salohiyatidagi tafovutlar tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, milliy iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatning barqarorligini mustahkamlash va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshlikni oshirishga ta’sir etuvchi quyidagi asosiy iqtisodiy xatarlarni tizimli ravishda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi xatar - eksport bozorlarining va mahsulotlarining konsentratsiyasi. Yirik hamkor davlatlar talabidagi pasayish, transport yo‘nalishlaridagi uzilish yoki savdo cheklovlari mamlakat eksportiga ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun yangi bozorlarga kirish bilan bir qatorda korxonalarning xalqaro standartlar va texnik talablarni bajarish salohiyatini oshirish talab etiladi.

Ikkinchi xatar - importga yuqori talab va valyuta oqimlari nomutanosibligi. Kapital tovarlari importi ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirsa-da, loyiha samaradorligi past bo‘lganda importning yuqori darajasi uzoq muddatli tashqi bosimga aylanishi mumkin. Davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarida eksport tushumi, texnologiya transferi, mahsulot sifati va mehnat unumdorligi kabi natijaviy mezonlar qo‘llanishi lozim.

Uchinchi xatar - xomashyo narxlari va oltin savdosi bilan bog‘liq o‘zgaruvchanlik. Shu sababli makroiqtisodiy monitoring tizimida oltindan tashqari eksportning yillik o‘sishi, yuqori qayta ishlangan mahsulotlar ulushi, xizmatlar eksporti va eksport qiluvchi firmalar soni alohida ko‘rsatkich sifatida e’lon qilinishi foydali.

To‘rtinchi xatar - hududlararo tafovut. Poytaxt va yirik sanoat markazlaridagi eksport infratuzilmasi boshqa hududlarga nisbatan qulayroq bo‘lishi mumkin. Hududiy eksport markazlari, sertifikatlash laboratoriyalari, konsolidatsiya omborlari va elektron savdo platformalari kichik va o‘rta korxonalarning tashqi bozorga chiqish xarajatlarini kamaytiradi.

Beshinchi xatar - global qiymat zanjirlariga qo‘shilishning cheklanganligi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar yirik xalqaro buyurtmachilarning sifat, ekologik va ijtimoiy standartlariga moslashmasa, xomashyo yoki oddiy yig‘uv operatsiyalari bilan cheklanib qolishi mumkin. Shu sababli sanoat siyosati eksportchilarni texnologik modernizatsiya, muhandislik kompetensiyalari va xalqaro sertifikatsiya bilan bog‘lashi zarur [12,14].

XULOSA

Tahlil asosida tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish uchun beshta ustuvor yo‘nalish taklif etiladi. Birinchidan, eksportni qo‘llab-quvvatlash dasturlari yalpi hajm bilan birga mahalliy qo‘shilgan qiymat, mahsulot murakkabligi va yangi bozorlar soni kabi natijaviy mezonlarga asoslanishi kerak. Ikkinchidan, eksportchi korxonalarga xalqaro sertifikatlar, laboratoriya sinovlari, marketing va elektron savdo kanallariga kirishda manzilli yordam ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, logistika siyosatida tranzit yo‘laklarini diversifikatsiya qilish, chegara nazoratida elektron ma’lumot almashinuvi va multimodal tashish

infratuzilmasini rivojlantirish muhim.

To‘rtinchidan, sanoat va investitsiya siyosati import qilinayotgan texnologiyalar asosida eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish, mahalliy yetkazib beruvchilar tarmog‘ini kengaytirish va mehnat unumdorligini oshirishga yo‘naltirilishi lozim.

Beshinchidan, statistik monitoringni takomillashtirish zarur: eksportning oltindan tashqari qiymati, xizmatlar eksporti, korxonalar kesimidagi mahsulot diversifikatsiyasi, eksport bozorlarining konsentratsiyasi va logistika xarajatlari muntazam baholanib borilishi kerak. Bunday ko‘rsatkichlar davlat siyosati samaradorligini faqat aylanma o‘sishi bilan emas, sifat o‘zgarishlari orqali o‘lchash imkonini beradi.

O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: savdo aylanmasining tez kengayishi; yirik hamkor davlatlar ulushining yuqoriligi; transport-geografik cheklovlar; ishlab chiqarish uskunalari importining salmoqli o‘rni; oltin bilan bog‘liq eksport tebranishlari; xizmatlar va qayta ishlangan mahsulotlar eksportini rivojlantirish salohiyati. 2026-yilning dastlabki to‘qqiz oyida jami eksport pasaygani holda oltindan tashqari tovar eksportining 31,6 foiz o‘sishi diversifikatsiyani baholashda tarkibiy indikatorlar alohida ahamiyatga egaligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining kelgusidagi barqaror rivojlanishi milliy iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi, ishlab chiqarish salohiyatining modernizatsiyalashuvi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashuvi bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim shartlari hisoblanadi. Shuningdek, tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishda hududlarning eksport salohiyatidan samarali foydalanish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish hamda eksport mahsulotlarining geografik va tarmoq diversifikatsiyasini kuchaytirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bunda raqamli savdo platformalarini rivojlantirish, xalqaro sifat standartlarini joriy etish, transport-logistika xizmatlarining samaradorligini oshirish va tashqi savdo operatsiyalarida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish muhim yo‘nalishlar sifatida qaralishi lozim. Umuman olganda, O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish strategiyasi savdo aylanmasining miqdoriy o‘sishini ta’minlash bilan cheklanmasdan, eksportning iqtisodiy samaradorligini oshirish, tashqi bozorlarga bog‘liqlik bilan bog‘liq xatarlarni kamaytirish va milliy iqtisodiyotning global qiymat zanjirlaridagi ishtirokini kengaytirishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Mazkur yondashuv mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi, eksport salohiyati va xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Umumiy ilmiy xulosa shundan iboratki, tashqi iqtisodiy

faoliyat samaradorligi savdo hajmini oshirish bilangina cheklanmaydi; barqaror natija eksport tarkibining murakkablashuvi, ishlab chiqarish unumdorligi, bozorlar diversifikatsiyasi va institutsional xarajatlarning pasayishi bilan belgilanadi. Keyingi tadqiqotlarda tarmoqlar bo‘yicha panel ma’lumotlar yordamida logistika, valyuta kursi va tarif o‘zgarishlarining eksportga ta’sirini ekonometrik baholash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Tashqi savdo statistikasi va rasmiy axborotlar. https://stat.uz/
2. World Bank. Uzbekistan: Country Overview. https://www.worldbank.org/ext/en/country/uzbekistan
3. International Monetary Fund. 2026 Article IV Consultation with the Republic of Uzbekistan. 18.06.2026. https://www.imf.org/en/news/articles/2026/06/18/pr-26214-uzbekistan-imf-executive-board-concludes-2026-article-iv-consultation
4. UzDaily. Uzbekistan’s Foreign Trade Turnover Reaches US$81.2 Billion in 2025. 22.01.2026. https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-foreign-trade-turnover-reaches-us812-billion-in-2025-up-207/
5. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. London, 1817.
6. Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International Economics: Theory and Policy. Pearson.
7. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London, 1776.
8. Heckscher E. F. The Effect of Foreign Trade on the Distribution of Income. 1919.
9. Ohlin B. Interregional and International Trade. Harvard University Press, 1933.
10. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. Free Press, 1990.
11. Rodrik D. One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth. Princeton University Press, 2007.
12. Baldwin R. The Great Convergence: Information Technology and the New Globalization. Harvard University Press, 2016.
13. World Trade Organization. World Trade Report 2023: Re-globalization for a Secure, Inclusive and Sustainable Future. Geneva, 2023. https://www.wto.org/
14. UNCTAD. World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Government. United Nations, 2024. https://unctad.org/
15. World Bank. Logistics Performance Index (LPI) 2023. https://lpi.worldbank.org/